e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/ktnxva57

"SAB'AI SAYYOR" LEKSIKASIDA METAFORALARNING IFODALANISHI

Xo'janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti, dotsent, (PhD).
e-mail: shahnozaxon8686@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-9382-724X

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonida metaforik ma'no ko'chishi asosida shakllangan leksik birliklar tahlil qilinadi. Ushbu birliklarning tilda va nutqda namoyon bo'lish xususiyatlari yoritilib, ularning lisoniy va konseptual jihatlari ochib beriladi. Tahlilda leksik birlikning asl va ko'chma ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishga, shuningdek, badiiy kontekstning metaforik ma'noni anglashdagi o'rniga e'tibor qaratiladi. Metaforalarning tabiat hodisalari va qahramonlarning ichki kechinmalarini obrazli ifodalashdagi vazifasi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: metafora, ko'chim, konseptual, konnotativ, sintagma, komponent, fitonim, o'xshatish.

ВЫРАЖЕНИЕ МЕТАФОР В ЛЕКСИКЕ ПОЭМЫ «САБЪАИ САЙЁР»

Ходжаниязова Шахноза Сатимбоевна
Ташкентский университет прикладных наук, доцент, (PhD).

Аннотация.
В статье анализируются лексические единицы, сформировавшиеся в результате метафорического переноса значения в поэме Алишера Навои «Сабъаи сайёр». Рассматриваются особенности их функционирования в языке и речи, раскрываются их лингвистические и концептуальные аспекты. Особое внимание уделяется связи между прямым и переносным значениями лексической единицы, а также роли художественного контекста в интерпретации метафорического значения. Показана роль метафор в образном изображении явлений природы и внутренних переживаний героев.

Ключевые слова: метафора, перенос значения, концептуальный, коннотативный, синтагма, компонент, фитоним, сравнение.

THE EXPRESSION OF METAPHORS IN THE VOCABULARY OF "SAB'AI SAYYOR"

Xo'janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Tashkent University of Applied Sciences, Associate Professor, (PhD).

Abstract.
This article examines lexical units formed through metaphorical transfer in Alisher Navoi's poem Sab'ai Sayyor. It explores how these units function in the language system and in actual usage, highlighting their linguistic and conceptual features. The analysis focuses on the relationship between literal and figurative meanings and on the role of literary context in interpreting metaphorical meaning. It also shows how metaphors depict natural phenomena and convey the characters' inner experiences.

Keywords: metaphor, semantic transfer, conceptual, connotative, syntagm, component, phytonym, simile.

Kirish. Til uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, uning lug'at tarkibidagi o'zgarishlar kishilarning tafakkuri va nutqiy ehtiyojlari bilan bog'liq. Sinonim so'z va iboralarning shakllanishi ham ana shu jarayonning bir ko'rinishidir. Ma'nodosh birliklar kishilarning so'z ma'nolarini har tomonlama to'laroq va mukammalroq ochishga intilishi natijasida yuzaga keladi [Vafoyeva: 2009, 11]. Ular umumiy ma'nosi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ma'no nozikligi, hissiy bo'yog'i va qo'llanish doirasiga ko'ra farqlanadi. Shu bois nutqda ma'nodosh birliklardan birini tanlash fikrning aniqligi va ifoda ta'sirchanligiga xizmat qiladi.

Tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda metafora ham muhim o'rin tutadi. Metaforada bir narsa yoki hodisaga xos belgi o'xshashlik asosida boshqasiga ko'chiriladi. Natijada so'z muayyan nutqiy vaziyatda ko'chma ma'no kasb etib, tasvirlanayotgan hodisaning biror jihatini obrazli ifodalaydi. Metaforani o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Aristotel zamonidan buyon u ritorika, psixologiya, falsafa, stilistika, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlar namoyandalari tomonidan tahlil qilingan [Qobuljonova: 2000, 9]. Sinonimiya va metaforani birgalikda o'rganish ko'chma ma'noda qo'llangan birliklarning qaysi jihatdan ma'nodosh bo'lishini hamda ular nutqda qanday uslubiy farqlarni yuzaga chiqarishini aniqlashga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Turli tillarning ifoda imkoniyatlarini qiyosiy o'rganishda metaforik ko'chimlar alohida o'rin tutadi. Inson yangi yoki mavhum hodisani anglashda ko'pincha uni avvaldan tanish bo'lgan narsa va hodisalarning belgilari orqali tasavvur qiladi. Til ana shu tafakkur jarayonini ifodalagani uchun uni inson tafakkurining tarjimoni deb atash mumkin. Tilning ushbu «tarjimonlik» vazifasi, ayniqsa, ekspressiv-baholovchi konnotatsiyalarni ifodalovchi obrazli metaforalarda yaqqol namoyon bo'ladi [Maxraimova: 2020, 35]. Masalan, insonning mehribonligini *ko'ngli quyosh* ifodasi orqali tasvirlashda

ISSN 3060-5059 (Online)

quyoshga xos iliqlik belgisi insonning boshqalarga munosabatiga ko‘chiriladi. Shu tariqa obraz tasvirlanayotgan shaxsning fazilatini ochib berish bilan birga, so‘zlovchining unga nisbatan ijobiy bahosini ham ifodalaydi. Metaforaning mohiyatini anglashda falsafiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy qarashlar va mantiqiy tahlil ilmiy nazariyalarning shakllanishiga asos bo‘ladi [Rofiyeva: 2020, 122]. Metaforaga shu nuqtayi nazardan yondashish insonning qiyoslanayotgan hodisalar orasidan qanday umumiy belgini ajratib olishi va nima uchun aynan shu belgiga tayanishini tushuntirishga yordam beradi. Masalan, *fikrning ildizi* birikmasida o‘simlikning o‘sishini ta’minlovchi ildiz haqidagi tasavvur fikrning kelib chiqishi yoki uning asosini ifodalashga xizmat qiladi. Bunda o‘simlik ildiziga xos belgilardan faqat muayyan vazifaga daxldor jihat, ya’ni biror narsaning shakllanishiga asos bo‘lish xususiyati ajratib olinadi. O‘zbek leksikologiyasida M. Mirtojiyev metaforani nutq hodisasi va til hodisasi sifatida ikki turga ajratib o‘rgangan [Mirtojiyev: 2010, 96]. Nutqiy metafora muayyan matn yoki nutqiy vaziyatda shakllanadi va uning ma’nosi ko‘pincha kontekst orqali anglashiladi. Masalan, *Uning savoli suhbatga oyna tutdi* jumlasida savol suhbat davomida yashirin qolgan jihatlarni ko‘rishga imkon bergani obrazli tarzda ifodalanadi. Til hodisasi sifatidagi metaforada esa ko‘chma ma’no muntazam qo‘llanish natijasida barqarorlashadi. *Tog‘ etagi* birikmasida *etak* so‘zining tog‘ning quyi qismini bildirishi bunga misol bo‘la oladi. Bunday qo‘llanishda so‘zlovchi ma’noni anglash uchun har safar kiyim etagi obrazini alohida tiklashga ehtiyoj sezmaydi.

Metafora, o‘xshatish va obrazli iboralarning shakllanishida inson tafakkuriga xos qiyoslash amali muhim o‘rin tutadi. Tilshunoslikda qiyoslash keng ma’noda muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida to‘plagan bilim va tajribasi aks etadigan lisoniy hodisa sifatida talqin etiladi [Samoylenko: 2010, 8]. O‘xshatish uchun tanlangan obraz xalqning kundalik hayotida yaxshi tanish bo‘lgan predmet yoki hodisa bilan bog‘lanishi mumkin. Masalan, *paxtadek oppoq* birikmasida paxta rang belgisini ifodalovchi obraz vazifasini bajaradi. Ayni shu obraz *paxtadek yumshoq* birikmasida boshqa belgini, ya’ni yumshoqlikni ifodalaydi. Demak, qiyoslashning mazmuni obrazning o‘ziga ham, nutqda uning qaysi belgisi ajratib ko‘rsatilishiga ham bog‘liq.

Metafora va o‘xshatishning farqi, avvalo, qiyosning qanday ifodalanishida ko‘rinadi. O‘xshatishda o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz alohida ifodalanadi. Qiyoslash belgisi ham ochiq ko‘rsatilsa, o‘xshatish uch komponentli bo‘ladi. Masalan, *U sher kabi jasur* jumlasida *u* o‘xshatiluvchi obyektni, *sher* o‘xshovchi obrazni, *jasur* esa qiyoslash belgisini bildiradi. *U sher kabi jang qildi* jumlasida obyekt va obraz ifodalangan, qiyoslashning aynan qaysi belgiga asoslangani esa kontekstdan anglashiladi. Metaforada o‘xshovchi obrazga tegishli nom tasvirlanayotgan obyektga ko‘chiriladi va qiyoslash belgisi shu obraz orqali anglashiladi [Mukarramov: 1976, 11]. Masalan, *U jang maydonida sher edi* jumlasida *sher* so‘zi insonni obrazli tavsiflaydi. Jasurlik belgisi alohida aytilmasa ham, uni jang vaziyati va tanlangan obraz orqali tushunish mumkin.

Qiyoslash asosida yuzaga kelgan ko‘chma ma’no ayrim iboralarning mazmunida ham saqlanadi. Masalan, *og‘ziga talqon solmoq* iborasi biror vaziyatda indamay qolishni obrazli tarzda ifodalaydi. U muayyan kontekstda *jim bo‘lmoq* yoki *indamaslik* birliklariga ma’no jihatidan yaqinlashadi, biroq so‘zlovchining hayrati yoki noroziligini ham sezdirishi mumkin. Shu jihatdan metaforik ko‘chimlarni sinonimiya bilan bog‘liq holda o‘rganish ma’nodosh ifodalarning qaysi vaziyatlarda bir-biriga yaqinlashishini hamda obrazlilik, baho va uslubiy bo‘yoq jihatidan qanday farqlanishini aniqlashga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Badiiy matnning ta’sirchanligi va estetik qimmatini ta’minlovchi vositalardan biri ko‘chim hisoblanadi. Ma’lumki, ular orasida metafora alohida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostonida qo‘llangan leksemalar metaforik ifodalarga boy bo‘lib, ularda qahramonlarning tashqi qiyofasi, ruhiy holatlari, ishq va hijron kechinmalari hamda tabiat manzaralari aks etgan.

Arabcha jahán istilohi Navoiy asarlari tilida «olam, dunyo, borliq» ma’nolarini ifodalashda qo‘llangan (ANATIL, I, 570–571). Doston matnida mazkur o‘zlashma quyida keltirilgan baytda insonga xos xususiyatlardan biri — «ahd-paymonni buzuvchi; sadoqatsiz, vafosiz» (O‘TIL, I, 427) ma’nosini anglatuvchi bevafálïγ leksemasi yordamida ma’no ko‘chishiga asoslanib, metaforani yuzaga keltirgan:

Čun jahán bevafálïγïγa baqïb,
Külüb, ammá közüŋdin aški aqïb (10b11).

«Qattiq achchiqlanish, jahl tuyg‘usi; g‘azab» ma’nosini anglatuvchi (O‘TIL, IV, 22) qahr o‘zlashmasi tïγ — «qilich, xanjar» hamda sarsar — «sovuq, kuchli, qattiq shamol» leksemalari bilan birikib, ko‘chma ma’nolarni ifodalagan:

Anda ham qahr tïγïni surmay,
Mendek öltürgülikni öltürmäy (61a17);
Bildikim, qahr sarsarï esmiš,
Öz qolï birlä öz bašïn kesmiš (18b32).

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan baytlarda qahr tïγï — «qahr-g‘azab qilichi», qahr sarsarï — «g‘azab, qahr, achchiqlanish belgisi» ma’nolarini ifodalash orqali metaforani yuzaga keltirgan.

«Eroniy quyosh yilining yettinchi oyi; quyosh» (O‘TIL, III, 171–172) ma’nolarini bildiruvchi mehr leksemasi dostonda mehr tïγï va mehr jámï birikmalari yordamida metaforik perifrazani hosil qilgan. Navoiy asarlari tilida tïγ o‘zlashmasi «xanjar, pichoq, qilich kabi kesadigan asbob; keskir asbobning dami; jabr, zulm, alam» (ANATIL, III, 234–235), jám esa «qadah, may piyolasi; may, sharob qadahi» (ANATIL, I, 584–585) ma’nolarida qayd etilgan. Quyida keltirilgan baytda tïγ quyoshning o‘tkir, to‘g‘ri taraluvchi nurlarini qilichga, jám esa yumaloq shakli va ichi nurga to‘laligi jihatidan piyolaga o‘xshatish orqali metaforik perifrazani vujudga keltirgan:

Oylakim mehr tïγ-u jám bilä,

ISSN 3060-5059 (Online)

Tuttï álam yüzini kám bilä (11b25).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida «shirasi o‘tkir, shirali» birlamchi ma’nosini (O‘TIL, VI, 643) ifoda etuvchi širin o‘zlashmasi kám — «orzu, maqsad», ján — «inson hayoti va joni», kalám — «so‘z; gap-so‘z; so‘zlash, gapirish» leksemalari bilan sintagmatik munosabatga kirishib, konnotativ ma’noni voqelantirgan:

Šakaridin köŋülya širin kám,
Jányа ásuda muški birlä mašám (6a29);
Teŋrigä šukrlar adá äyläb,
Jáni širin aŋa fidá äyläb (28a29);
Andä širin kalám-u xandán yüz
Birläkim, xalqdin sorarsen söz (10b29).

Eski o‘zbek adabiy tilida «g‘azab, jahl; g‘azablanish, qizishish» (ANATIL, IV, 96) ma’nolarini bildiruvchi ɣazab istilohi «yonish jarayoni; olov, otash» semasidagi ot (O‘TIL, VI, 452–454) leksemasi bilan birikib, konnotativ ma’noni hosil qilgan:

Šahki ismái bu maqál etti,
Ɣazabï oti ištiál etti (18b12).

«Odam boshining old tomoni, old tomondan ko‘rinishi; bet» (O‘TIL, VI, 297) ma’nosini ifodalovchi yüz leksemasi «gulzor, chaman, gulbog‘; yuz chiroyi, go‘zalligi» (ANATIL, I, 415) semasidagi gulzár fitonimi bilan birikib, metaforani yuzaga keltirgan. Quyida berilgan baytda metaforalanayotgan so‘z — yüz, metaforani hosil qilgan so‘z esa gulzár sanaladi. Adib ma’shuqaning yuzini gulzorga, undagi ikki labni esa ikki ajib gulbargga qiyoslagan:

Yüzi gulzár-u iki lab anda,
Ikki gulbarg-i bul’ajab anda (15b30).

Xulosa. Alisher Navoiyning «Sab’ai sayyor» dostonida metafora asarning obrazlar tizimini shakllantiruvchi muhim badiiy vositalardan biridir. Shoir so‘zning ko‘chma ma’no imkoniyatlaridan foydalanib, inson hayoti, tabiat hodisalari hamda qahramonlarning ichki kechinmalarini o‘zaro bog‘liq holda tasvirlaydi. Bir predmet yoki hodisaga xos belgining boshqasiga ko‘chirilishi tasvirning muayyan jihatini ajratib ko‘rsatadi va unga hissiy-baholovchi mazmun yuklaydi. Shu tariqa o‘quvchi tasvirlangan voqeani obrazli tasavvur qiladi va uning qahramon ruhiyatiga ta’sirini ham anglaydi.

Dostonda metafora va o‘xshatish qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda bir-birini to‘ldiradi. O‘xshatishda qiyoslanayotgan hodisalar o‘rtasidagi yaqinlik ochiq ifodalansa, metaforada qiyosga asos bo‘lgan belgi ko‘chma ma’noli obraz orqali anglashiladi. Tabiat tasvirida qo‘llangan bunday obrazlar voqea kechayotgan muhitni jonlantiradi va ayrim o‘rinlarda qahramonning kayfiyatini ochishga xizmat qiladi. Metaforik ifodaning mazmuni shu bois u qo‘llangan bayt, voqea rivoji va qahramonning ruhiy holati bilan bog‘liq holda to‘laroq ochiladi.

Doston tilini sinonimiya nuqtayi nazaridan o‘rganish mazmunan yaqin ifodalar orasidagi uslubiy tafovutlarni ham ko‘rsatadi. Bir kechinmani ifodalashga xizmat qiluvchi birliklar obrazlilik darajasi, hissiy bo‘yog‘i va baholash ohangi jihatidan farqlanishi mumkin. Muayyan ifodaning tanlanishi kechinmaning qaysi jihati tasvir markaziga chiqishini belgilaydi. «Sab’ai sayyor»da metafora, o‘xshatish va ma’nodosh ifodalarning shu tarzda uyg‘unlashuvi Navoiy badiiy tilining ma’no nozikliklarini hamda qahramon ruhiyatini tasvirlash imkoniyatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – O‘n jildlik. – VII jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B. 275–644.
2. Vafoyeva M. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2009. – B. 11.
3. Mahmarayimova Sh. O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Samarqand, 2020. – B. 35.
4. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 96.
5. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. – B. 11.
6. Самойленко Е. С. Проблемы сравнения в психологическом исследовании. – Москва: Институт психологии РАН, 2010. – С. 8.
7. Rofiyeva G. O‘zbek tilidan fransuz tiliga konseptual metaforalar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari (Erkin A’zam asarlari asosida): filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2020. – 122 b.
8. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2000. – B. 9.